

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

1960-1970-YILLARDA TABIAT LIRIKASINING IFODALANISHI

Jarkinova Tursunoy Abdumajitovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, katta o'qituvchi.

e-mail: tursunoyjarkinova@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-2368-8377>

Annotatsiya.

Tabiat tasviri doimo shoir va yozuvchilarni ilhomlantirib kelgan. Shoirilar she'rlarida ba'zan tabiatdagi hodisalarni tasvirlasa, ba'zida ifodalamoqchi bo'lgan fikrlari va g'oyalarini tabiatdagi detallar, voqeliklar orqali berishga intilgan. 60-70-yillar ijodkorlari uchun ham bu tamoyil begona emas. Ushbu maqolada 60-70-yillarda ijod qilgan shoirilar she'rlarida tabiat lirikasining qay darajada ifodalanganligi masalasi ko'tarilgan. A.Oripov, Erkin Vohidov, R. Parfi, J.Jabborov, Yusuf Shomansur she'rlari misolida masalaga oydinlik kiritilgan.

Kalit so'zlar: tabiat lirikasi, o'zbek adabiyoti, shaxslantirish, ramzlar, tashbeh, badiiy takrorlar.

ПОЭЗИЯ ПРИРОДЫ В 1960-Х И 1970-Х ГОДАХ

Жаркинова Турсуной Абдумажитовна

Узбекский государственный университет мировых языков, старший преподаватель.

Аннотация.

Изображение природы издавна служило источником вдохновения для поэтов и писателей. В своих стихах поэты порой описывают природные явления, а порой стремятся выразить собственные мысли и идеи через детали и образы, почерпнутые из мира природы. Такой подход был характерен и для литераторов 1960–1970-х годов. В данной статье рассматривается, какое место тема природы занимает в творчестве поэтов той эпохи; этот вопрос освещается на примере произведений А. Орипова, Эркина Вохидова, Р. Парфи, Ж. Джабборова и Юсуфа Шомансура.

Ключевые слова: пейзажная лирика, узбекская литература, олицетворение, символы, сравнение, художественный повтор.

THE EXPRESSION OF NATURE POETRY IN THE 1960S AND 1970S

Jarkinova Tursunoy Abdumajitovna

Uzbekistan State University of World Languages, Senior Lecturer.

Abstract.

The depiction of nature has long served as a source of inspiration for poets and writers. In their verses, poets sometimes describe natural phenomena, while at other times they seek to convey their thoughts and ideas through details and realities drawn from the natural world. This approach was also characteristic of the writers of the 1960s and 1970s. This article examines the extent to which nature poetry is represented in the works of poets from that era, shedding light on the subject through the examples of A. Oripov, Erkin Vohidov, R. Parfi, J. Jabborov, and Yusuf Shomansur.

Keywords: nature poetry, Uzbek literature, personification, symbols, simile, artistic repetition.

Kirish. Tabiat lirikasi barcha davrlar she'riyatining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lib kelgan. Shoirilar tabiat orqali goh ichki olamining in'ikosini aks ettirsa, gohida ijtimoiy voqelikni berishga intilgan. 60–70-yillarga kelib peyzaj she'riyati yangicha falsafiy va estetik bosqichga ko'tarildi. Bu davrda asosiy pog'onaga ko'tarilgan falsafiy-intellektual lirikaning eng muhim quroli tabiat edi. Insonlarning ichki olami tabiat orqali berila boshlandi. Tabiat tasviri ushbu davrda quyidagi muhim xususiyatlarning shakllanishiga turtki bo'ldi:

1. Inson va tabiatni uyg'unlikda tasvirlashga intilish kuchaydi.
2. Umrning o'tishi va vaqt masalasini fasllar almashinuvi bilan bog'liqlikda tasvirlash orqali falsafiylik kuchaydi.
3. Ekologik daxldorlik: texnika asrida tabiatni asrash va unga mehr ko'rsatish g'oyalari ilgari surildi.
4. Ramziylik (metafora): bahor — yoshlik, kuz — xazonrezlik va keksalik ramzi sifatida chuqurlashdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bu davr she'riyati xususida bir necha kitoblarda fikr-mulohazalar berilgan.

Akromov B. [1], Rahimjonov N. [2], G'afurov I. [3], Jumaboyeva J. [4] kabi olimlarning ishlarida bu davrga xos xususiyatlar tadqiq qilingan. Xususan, peyzaj lirikasi tadqiqiga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot mavzusini yoritishda biografik, qiyosiy-tipologik, psixologik, lingvopoetik va sotsiologik usullardan foydalanildi.

Muhokama. Bu davr ijodkorlari tomonidan peyzaj lirikasining takrorlanmas namunalari yaratildi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Omon Matjon she'riyatida tabiat lirikasining yangicha qirralarini ko'rishimiz mumkin. Abdulla Oripov "Bahor", "Kuz" she'rlarida tabiat hodisalarini orqali ijtimoiy va intim dardni tasvirlashga intilgan, uni vatanparvarlik tuyg'ulari bilan uyg'unlashtirgan. Shoir tabiat manzaralari (cho'llar, tog'lar, bahoriy lolazorlar) orqali Ona Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatini va milliy g'ururni ifodalaydi. Oripov tabiat hodisalaridan hayotiy haqiqatlarni chiqarishda foydalanadi. Bahorning kelishi faqat fasl yangilanishi emas, balki jamiyatdagi, inson dunyoqarashidagi uyg'unlash ramzidir.

Abdulla Oripovning "Kuz" she'rida tabiat manzaralari orqali inson umrining o'tkinchiligi va ruhiy kechinmalari falsafiy talqin etiladi. Kuz xazonlari va sokinlik fonida lirik qahramonning o'y-fikrlari, hayot sinovlari badiiy personifikatsiya usuli bilan mohirona tasvirlangan. Ushbu tahlil she'rdagi personifikatsiya va falsafiy parallellikning o'zaro uyg'unligini, shuningdek, an'anaviy tasvirchilikdan falsafiy mushohadaga o'tilganini ko'rsatadi. Asosiy g'oya — kuz orqali inson umrining mohiyatini anglash va ruhiy tozalanish jarayonini ochib berishdan iborat.

Rauf Parfi tabiat tasvirida modernistik uslubni olib kirgan. Yomg'ir, shamol, barglar uning she'riyatida jonli personajga aylandi. Rauf Parfi tabiat lirikasi an'anaviy tasvirlardan uzoqligi, ramzlar va metaforalarga boyligi bilan ajralib turadi. Shoirning tabiat hodisalariga bo'lgan munosabati uning "Yomg'ir" she'rida yaqqol namoyon bo'ladi. She'rda yomg'ir shunchaki tabiat hodisasi emas, balki lirik qahramonning ichki dunyosi, qalb izzitoblari va poklanish ramzi sifatida gavdalanadi. Rauf Parfi tabiat tasvirida ranglar va musiqiylikka katta e'tibor qaratadi. Yomg'irning har bir tomchisi she'rda o'ziga xos ritm va ovoz hosil qiladi. Shoir tabiat bilan sirdosh tutinadi, undan taskin qidiradi. Rauf Parfi tabiatni klassik she'riyatdagi lola, gul, bulbul qoliplaridan chiqardi. U yomg'ir, shamol va qorong'ulik kabi unsurlarga falsafiy ma'no yukladi. Tabiatdagi evrilishlar (masalan, yomg'ir yog'ishi yoki barg to'kilishi) to'g'ridan to'g'ri inson ruhiyatidagi o'zgarishlar (yig'i, mahzunlik, umid) bilan parallel ravishda tasvirlanadi.

Omon Matjon Xorazm tabiati, Amudaryo manzaralari orqali inson va borliq munosabatlarini o'zgacha talqin qildi. Uning tabiat tasviridagi o'ziga xosligi — tabiatni insonning mangu beshigi, hayot manbai va milliy ildizlar ramzi sifatida ko'rsatishidir. Omon Matjon o'zbek tabiat lirikasiga Xorazm vohasi, Amudaryo va Qizilqum tabiatining o'ziga xos iqlimi, o'simlik hamda hayvonot dunyosi pafosini olib kirdi. Uning tabiat lirikasi Rauf Parfining pinhona, g'amgin va sokin yomg'irlaridan farq qilib, daryoning hayqirig'i, sahroning kengligi kabi jo'shqin va dinamik (harakatdagi) tasvirlarga tayanadi.

Natijalar. 60–70-yillarda tabiatning fusunkor manzaralari noyob o'xshatishlar vositasida chizib berildi. Jumaniyoz Jabborov 60–70-yillar o'zbek adabiyotida tabiatni nozik tuyg'ular, lirik pafos va musiqiylik orqali kuylagan o'ziga xos ijodkor hisoblanadi. Uning tabiat lirikasi an'anaviy mumtoz g'azaliyot an'analari bilan zamonaviy she'riyat shakllarining o'zaro sintezidan iborat.

Jumaniyoz Jabborov she'riyatiga xos xususiyatlar quyidagilar:

Manzarachilik va lirik pafos. Shoir ijodida tabiat tasviri sof estetik zavq berishga xizmat qiladi. U manzarani juda aniq va yorqin ranglarda chizadi (tasviriy tasvir).

Mumtoz an'analari davomiyligi. Jumaniyoz Jabborov tabiat tasvirida navoiyona ohanglar, g'azal janriga xos nafosat va sharqona ramzlardan (gul va bulbul, tong sabosi) o'rinli foydalangan holda zamonaviy lirikani shakllantirdi.

Optimistlik (hayotbaxshlik). Uning tabiat lirikasi lirik qahramonni tushkunlikka emas, aksincha, borliq go'zalligidan hayratlanishga, hayotni sevishga va zamin ne'matlarini qadrlashga undaydi.

Jumaniyoz Jabborov qalamiga mansub she'rni ko'rib chiqaylik:

Oydin

Farog'atli, osuda bir tun,
Bog' uxlari,
Bulbullar tongni kutadi.
Teraklar osmonga bo'lganday ustun,
Oyga, yulduzlarga yelka tutadi.
Xuddi nozli sharpa
Yo shirin tushday,
Oq harir libosda kelinchak kecha
Bog' ichra aylanib yurar oq qushday.
Suvlar jivirlaydi,
Uyquda g'uncha.

J. Jabborov she'rda teraklarni osmon ustuniga, kechani oq harir libosdagi kelinchakka, oq qushga mengzaydi. Bunda tunning sokinligi va betakrorligi "oq harir libosdagi kelinchak kecha" orqali anglashilgan. Shoir tabiat tasviri orqali o'zining tuyg'ularini oshkor etadi. Tunda, sukunat og'ushida insonning o'zligini anglab yetishi, qalbiga quloq tutishi uchun qulay ekanligini misralarga singdirib yuborgandek, go'yo.

"Dengiz" she'rida esa:

"Tabiatning simfoniyasi
Jaranglaydi dengiz tilida", –
deya dengiz bilan sirlashadi.

Shoirning tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlarida musiqiylik va ohangdorlik juda kuchli. U bahor nafasi, tog' cho'qqilaridagi oppoq qorlar, shildirab oqayotgan soylar va bog'lardagi gullar tasvirini chizar ekan, so'zlardan go'yo ohang qidiradi. Muallif an'anaviy barmoq vazni va aruz unsurlaridan unumli foydalanib, tabiatning ichki ritmini she'rga ko'chiradi. Jumaniyoz Jabborov ijodida tabiat inson sevgisining guvohi va sirdoshidir. Lirik qahramonning yorga bo'lgan sog'inchi yoki qalbidagi beg'ubor tuyg'ulari ko'pincha tong shabadasi, ochilayotgan g'uncha yoki tungi yulduzlar tasviri orqali parallellikda ochib beriladi.

E'tibor Oxunova "Gilos" she'rida navbahorni o'lkaga chorlaydi:

Bahor...

Gul bog'larim qaydasiz?

G'unchalarim handasi,

Uyg'ondi gulshan, sabo,

Kel, navbahor, marhabo...

Nogoh gilos ko'z yoshlariga guvoh bo'ladi. Balki ko'z yoshlari, balki sevinch yoshlarimikin, deya o'ylanadi. Meva — farzandga tashnalik sabab ko'z yosh to'kayotgandir, deya xulosa yasaydi. Ayol kishiga xos bo'lgan mehribonlik, gilosning dardiga oshnolikni bu she'r orqali yaqqol anglaymiz.

Ijod ahli uchun ilhom parilari tunda, sokin paytda keladi, deyishadi. Shoir Yusuf Shomansur ham tunda ilhom bilan band. "Tun nash'asi" she'rida shoir o'zini borliq bag'riga singib ketganday his qiladi:

Sharillagan anhor sharsharasini

Tinglayman yer qalbi gupillashiday.

Tim qora kechaning manzarasini

Jonga sig'diraman ko'z bilan ko'rmay [5].

Shoir tabiatni jon qulog'i bilan tinglaydi. Borliqning o'ziga aylanadi. Anhor sharsharasini yer qalbining gupillashiga qiyos etadi. Borliqni kunduzi ko'rib, lekin tunda tinglashning gashti o'zgachaligini his qiladi. Original tasvirlarga boyligi bilan "Bedazor" manzarasi alohida ajralib turadi. Tong tasvirini nozik bo'yoqlarda beradi. Tashxis, ya'ni jonlantirish san'ati vositasida quyoshning qabog'ini ishqalashi, tongning sochi to'zg'ib uxlab yotishi tasviri go'zal manzarani vujudga keltirgan:

Qabog'in ishqar quyosh, hali ufq ortida,

Yostiq bilan bir bo'lib, sochi to'zg'ib uxlar tong.

Bulbul ham mizg'ib qolar gul ochilgan paytida,

Tanimni jimirlatar sukut o'zi bir ohang [6].

Sukunat bag'rida lirik qahramon musaffo havodan masrur. Shoir beda gulini o'zgacha narsaga o'xshatadi:

Gullagan bedalarning boshida oq jig'a bor,

Yozda to'r do'ppi kiygan uch yasharlik boladay.

Uch yasharlik bola tong chog'i pildirab, chopib, yugurib ko'zni quvontirganidek, bedaning guli ham ko'zlarni quvnatadi. Shoir beda gulini to'g'ridan to'g'ri "oq jig'a" deyish orqali kinoyaviy tashbehdan foydalanadi. Shudringni ham "marvarid" deb atash orqali kinoyaviy tashbehdan foydalangan. Shoir marvaridlarni terib olmoqchi. Biroq bu dushvor, chunki ular kiprik qoqsangiz, to'kilishga tayyor. Shu payt shabboda esdi-yu, shudring to'kildi. Shabboda tasvirida ham, shudring tavsifida ham o'zgacha tashbehdan foydalanadi:

Uyatchan kelinchakning ohista shiviriday

Bedazorni oralab esib qoldi shabboda.

Shudring donachalari soxta ishq taqdiriday

Uzildi shoda-shoda, uzildi shoda-shoda...

Shudring donalari garchi go'zal bo'lsa-da, bevafo. Shuning uchun shoir soxta ishqqa ishonmaydi. Tasvirni kuchaytirish uchun kuchaytiruvchi figuralarning maxsus turi — badiiy takrordan foydalangan. Badiiy takrorlar she'r ritmini oshiradi, musiqiyiligini ta'minlaydi. She'rda "Uzildi shoda-shoda, uzildi shoda-shoda..." so'z birikmalarining takrordan shu maqsadda foydalaniladi.

"Go'zal Chimyon" she'rida ham badiiy takrorlarning bir necha turidan unumli foydalangan. She'rning boshida hayratlanish va quvonchni ifodalash uchun ritorik murojaat ishlatilgan:

Go'zal Chimyon, seni sog'inib,

Yana keldim, quchog'ingni och!

Yana oshay Chotqol tog'ini,

Cho'qqilardan yozayin quloch [7].

Chimyonga murojaat qilish orqali o'quvchining e'tiborini shunga qaratgan. Tasvir obyektini ta'kidlab ifodalash uchun anafordan foydalangan. Anafora she'r yoki band boshidagi aynan bir so'zning takrorlanib kelishidir. Ma'noni kuchaytirish uchun ham shoir shundan foydalangan:

Sochlarimni to'zg'itsin yellar,

Erkalasin suvning to'lqini.

Mayli, tursin hayqirib sellar.

Mayli, tunlar buzsin uyquni.

Chaqmoq chaqsin momaqaldiroq,

Mayli, ko'kni qoplasin bulut.

Shalolangdek buluting oppoq,

Yog'dirasani seroblik va qut.

"Mayli" so'zi anafora vazifasini o'tagan. Chunki misra boshida aynan takrorlanyapti. Shoir shunday qarshi narsalar bo'lsa ham, baribir Chimyonni sevishini ta'kidlayapti. Intonatsiyaning kuchayishiga ham sabab bo'lyapti. She'rning oxirida esa birinchi band takrorlanyapti. She'r boshida kelgan misra, bayt yoki bandning takror kelishi halqa deb yuritiladi. Undan ikki maqsadda: she'r g'oyasini ta'kidlashda, she'rning kompozitsion butunligini saqlashda foydalaniladi. Shoir ham g'oyani alohida ta'kidlash, fikrini yaxlitlash uchun bu vositadan foydalangan.

Shoir — tabiat shaydosi. U hamma vaqt tabiatni anglashga, uning sadosini yurakdan tinglashga intiladi. Har bir narsadan mohiyat axtaradi:

Qimirlagan qir oshar, tolmay yurgan tog' oshar,

Ko'tarildim yuqori, qo'l uzatdi archalar.

Ko'ksin yorgan qoyalar etmoqchiday sir oshkor,

Goho toshlar dumalab bir-birini parchalar.

Bu she'rda tabiat bilan o'zini uyg'un deb biladi. Xalqimiz orasida "Qimirlagan qir oshar, tig'izlagan tog' oshar" maqoli bor. Shoir shu maqoldan foydalanib, o'z maqsadini oshkor etadi. "Irsoli masal" san'atidan foydalanadi. Badiiy asar tili jihatidan qaraganimizda esa xalq maqolini qo'llash orqali xalqonalikni ko'rsatadi.

Yusuf Shomansurning she'rlariga razm solar ekanmiz, ularda milliy koloritni ifodalovchi realiyalarga tez-tez murojaat qilinadi. Masalan, yuqorida eslangan maqol, o'sma, rayhon, sopol tovoq, piyola so'zlarining uchrashi, obraz darajasiga ko'tarilishi, mahalliy tus beruvchi realiyalar qatoriga kiruvchi Namangan, Samarqand, Toshkent, Chimyon kabi jug'rofiy nomlarning uchrashi shoir she'riyatiga milliy ruh bag'ishlab turibdi.

Xulosa. Bu davrda turli ranglar va tabiat tovushlari simfoniya sifatida yaratilishi, shaxslantirishning kuchayishi, ya'ni insonlarga xos bo'lgan jihatlarning tabiatdagi vositalarga ko'chirilishi badiiy uslubdagi yangilanishlar edi. Shoirlar tabiatni shunchaki chiroyli manzara sifatida emas, balki inson ichki dunyosini, uning quvonch va izzatlarini ochib beruvchi ko'zgu sifatida tasvirladilar. Tabiat hodisalari inson tabiati bilan uyg'unlashtirildi, borliq muammolari falsafiy mushohada darajasiga olib chiqildi. Ijodkorlar peyzaj tasviri orqali ekologik daxldorlik g'oyalarini ilgari surdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akromov B. *Olamning butunligi: lirikada obraz muammosi*. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1988. – 200 b.
2. Rahimjonov N. *Davr va o'zbek lirikasi*. – Toshkent: Fan, 1979. – 192 b.
3. G'afurov I. *O'ttiz yil izhori*. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1987. – 399 b.
4. Jumaboyeva J. *XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati*. – Toshkent: Fan, 2004. – 336 b.
5. Yusuf Shomansur. *Men o'tqazmagan daraxtlar*. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1986. – B. 61.
6. Yusuf Shomansur. *Men o'tqazmagan daraxtlar*. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1986. – B. 53.
7. Yusuf Shomansur. *Qo'sh yurak*. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981. – B. 59.